

O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINING RAQAMLI DAVRDAGI STRATEGIK  
QADAMLARI

**Baqoyeva Gulbahor Matyoqubovna**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,*

*PhD, "XMI" kafedrasida dotsenti*

[gulibakoeva@gmail.com](mailto:gulibakoeva@gmail.com)

**Shamsitdinova Shaxnozabonu Sheramat qizi**

*JIDU, XIM fakulteti, Investitsiyalarni boshqarish ta'lim*

*yo'nalishi magistranti*

[shakhhozaa@gmail.com](mailto:shakhhozaa@gmail.com)

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada O'zbekiston kapital bozorining raqamli davrda rivojlanish strategiyalari keng qamrovda tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali investitsiya muhitini yaxshilash, shaffoflikni oshirish va xalqaro standartlarga moslashish jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, kapital bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektron savdo platformalarini kengaytirish va investorlar uchun qulayliklar yaratish masalalari muhokama qilinadi. Tadqiqot kapital bozorining barqarorligi, raqobatbardoshligi va xalqaro integratsiyasini ta'minlashda innovatsion yechimlar hamda davlat siyosatining muvofiqlashtirilgan yondashuvini alohida ta'kidlaydi.*

**Abstract**

*This article provides a comprehensive analysis of the strategic steps undertaken by Uzbekistan's capital market in the digital era. It explores the integration of digital technologies, improvement of the investment climate, enhancement of transparency, and alignment with international standards. In addition, the study discusses modernization of market infrastructure, expansion of electronic trading platforms, and creation of favorable conditions for investors. The findings emphasize that innovative solutions, combined with coordinated government policies, play a crucial role in ensuring the sustainability, competitiveness, and international integration of the capital market.*

**Аннотация**

*В данной статье проводится расширенный анализ стратегических шагов развития фондового рынка Узбекистана в условиях цифровой эпохи. Рассматриваются внедрение цифровых технологий, улучшение инвестиционного климата, повышение прозрачности и адаптация к международным стандартам. Кроме того, исследование освещает вопросы модернизации инфраструктуры рынка, расширения электронных торговых платформ и создания благоприятных условий для инвесторов. Подчеркивается, что инновационные решения в сочетании с согласованной государственной политикой имеют ключевое значение для обеспечения устойчивости, конкурентоспособности и международной интеграции капитального рынка.*

**Kalit so'zlar:** *O'zbekiston kapital bozori, raqamli transformatsiya, investitsiya muhit, shaffoflik, innovatsiya, xalqaro integratsiya*

## **Kirish**

So'nggi yillarda O'zbekiston kapital bozori mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida raqamli transformatsiya jarayonlariga faol kirib kelmoqda. Raqamli davrda kapital bozorining samarali ishlashi nafaqat investitsiya muhitini yaxshilash, balki xalqaro moliya tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shu boisdan, kapital bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektron savdo platformalarini rivojlantirish va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali kapital bozorida shaffoflikni oshirish, ma'lumotlar almashinuvini tezlashtirish va risklarni samarali boshqarish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, kapital bozorining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, davlat siyosati va huquqiy bazaning takomillashuvi raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ablazov L. A. va Turdaliyev M. o'z tadqiqotida ta'kidlaganidek<sup>4</sup>: "Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshirish, xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirish va zamonaviy talablarni qondirish imkonini beradi". Ushbu fikr kapital bozorining raqamli davrdagi strategik qadamlari uchun ham dolzarb bo'lib, innovatsion yechimlar va global standartlarga moslashuvning ahamiyatini ko'rsatadi.

Shunday qilib, kirish qismida O'zbekiston kapital bozorining raqamli transformatsiya jarayonlari, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va xalqaro integratsiya imkoniyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Bu tadqiqot kapital bozorining kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik tahlil, komparativ tahlil hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ochiq statistik ma'lumotlar asosida kapital bozor ko'rsatkichlarining dinamikasi o'rganildi va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri baholandi.

## **Asosiy qism**


O'zbekiston kapital bozorining asosiy fundamenti hisoblangan **RFB "Toshkent" AJ** so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Ushbu o'zgarishlar nafaqat birjaning tashkiliy va texnologik infratuzilmasida, balki jamiyatning moliyaviy ko'rsatkichlarida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Birja faoliyatining modernizatsiyasi, savdo jarayonlarining raqamlashtirilishi va yangi moliyaviy instrumentlarning joriy etilishi kapital bozorining investitsiyaviy jozibadorligini oshirdi.

---

<sup>4</sup> <https://zenodo.org/records/14899927> - O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi, Ablazov Lazizbek Abdiquosimovich, Turdaliyev Murodjon, Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti, "Raqamli iqtisodiyot" ka fedrasi katta o'qituvchisi

RFB “Toshkent” AJ ning 2010 – yildagi bozor kapitalizatsiyasi 2,89 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lib<sup>5</sup>, bu ko‘rsatkich o‘sha davrdagi yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 5,8 foiziga teng edi. Oradan o‘tgan davr mobaynida kapital bozorining rivojlanish sur‘atlari sezilarli darajada tezlashdi. 2025 – yil yakunlari bo‘yicha bozor kapitalizatsiyasi 23,68 milliard AQSH dollariga yetib<sup>6</sup>, YaIMga nisbatan 16,1 foizni tashkil etdi. 1-grafikdan ko‘rinadiki, so‘nggi yillarda kapital bozor kapitallashuvi sezilarli darajada oshib, uning YaIMdagi ulushi ham barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etmoqda.

**1-grafik. O‘zbekiston kapital bozori kapitallashuvi va YaIMga nisbati dinamikasi (2010–2025)**



Manba: muallif tomonidan RFB “Toshkent” va ochiq statistik ma’lumotlar asosida

tuzilgan.

■ Bozor kapitallashuvi, \$ mlrd      — Bozor kapitalizatsiya/YaIM, %

Ushbu o‘shish O‘zbekiston kapital bozorining iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlanayotganini va investitsiyaviy jozibadorlik ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, yuqori sur‘atli o‘shishga qaramasdan, bugungi kunda birja kotirovka varaqasida mavjud bo‘lgan 94 ta<sup>7</sup> emitentlarning atigi 32<sup>8</sup> tasi yuqori likvidlikka ega. Bu holat kapital bozorida likvidlik muammosi mavjudligini va uni hal etish uchun qo‘shimcha mexanizmlar zarurligini ko‘rsatadi. Likvidlikning past darajasi investorlar uchun risklarni oshiradi, shuningdek, kapital bozorining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini cheklaydi.

Kapital bozorining barqaror rivojlanishi uchun emitentlar sonini ko‘paytirish, ularning moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali savdo jarayonlarining shaffofligini oshirish, ma’lumotlar almashinuvini tezlashtirish va investorlar uchun qulayliklar yaratish mumkin.

Moliyaviy bozorlar nazariyasida ta’kidlanganidek<sup>9</sup>: “Kapital bozorining samaradorligi emitentlarning faoliyati, investorlarga taqdim etilayotgan ma’lumotlarning to‘liqligi va savdo

<sup>5</sup> National Summary Data Page (NSDP)-Uzbekistan - <https://nsdp.stat.uz/>

<sup>6</sup> National Summary Data Page (NSDP)-Uzbekistan - <https://nsdp.stat.uz/>

<sup>7</sup> [https://uzse.uz/isu\\_infos?page=2](https://uzse.uz/isu_infos?page=2)

<sup>8</sup> <https://uzse.uz/>

<sup>9</sup> Mishkin, F.S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets, Pearson, 2019. [https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/economics-of-money-banking-and-financial-markets-the/P200000005989/9780136893929?srsId=AfmBOoq\\_x8KR9ulHKZyaVkfnoB50RZQc1YN29iTccvo0ZOJ1fa8zo-KL](https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/economics-of-money-banking-and-financial-markets-the/P200000005989/9780136893929?srsId=AfmBOoq_x8KR9ulHKZyaVkfnoB50RZQc1YN29iTccvo0ZOJ1fa8zo-KL)

mexanizmlarining shaffofligi bilan bevosita bog'liqdir". Ushbu fikr O'zbekiston kapital bozorining bugungi holati va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda baholashda muhim nazariy dalil sifatida xizmat qiladi.


Shunday qilib, kapital bozorining o'sish sur'atlari yuqori bo'lsa-da, likvidlik muammosi va emitentlar faoliyatining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi uning to'liq potensialini cheklab turibdi. Kelgusida raqamli transformatsiya, huquqiy bazaning takomillashuvi va xalqaro integratsiya jarayonlari ushbu muammolarni bartaraf etishda hal qiluvchi rol o'ynashi kutilmoqda.

Kapital bozorning texnologik rivojlanayotganining asosiy indikatorlaridan yana biri bu riteyl (jismoniy shaxs) investorlarning bozordagi faolligidir. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, bundan uch yil avval jismoniy shaxs kapital bozorga kirish uchun brokerlik ofisiga borib, ko'p vaqtini sarflashi, hujjatlarni to'ldirishi va shundan keyingina savdo jarayoniga qo'shilishi mumkin edi. Bu jarayon murakkabligi sababli ko'plab potensial investorlar kapital bozoriga kirishda qiyinchiliklarga duch kelgan.

Bugungi kunga kelib esa, GOINVEST<sup>10</sup> kabi mobil ilovalarning rivojlanishi natijasida jismoniy shaxs investorlarning bozorga kirishi sezilarli darajada tezlashdi. Endilikda investorlar mobil ilova orqali bir necha daqiqada hisob ochib, savdo jarayoniga qo'shila oladi. Bu nafaqat vaqt tejalişhini, balki savdo qilish jarayonining qulaylashishini ham ta'minlamoqda. Raqamli texnologiyalar kapital bozoriga kirishni demokratlashtirib, keng omma uchun imkoniyatlar yaratmoqda.

Bunga yaqqol misol sifatida statistik ko'rsatkichlarni keltirish mumkin: 2020 – yilda bozordagi jami bitimlar soni 36 062 ta bo'lgan bo'lsa, 2025 – yil yakunlariga ko'ra ushbu ko'rsatkich 374 204 taga yetdi<sup>11</sup>. Bu o'sish investorlar faolligining keskin ortganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, 2026 – yil boshidan fevral oyining 23 – sanasigacha bo'lgan davrda bitimlar soni 111 532 taga yetgani<sup>12</sup>, kapital bozorida jismoniy shaxs investorlarning ishtiroki tobora kuchayib borayotganini tasdiqlaydi. Ushbu o'sish dinamikasi quyidagi grafikda yaqqol ko'rinadi (2-grafik).

**2-grafik. O'zbekiston kapital bozorida bitimlar soni dinamikasi (2010–2025)**



<sup>10</sup> Go Invest – investitsiya platformasi (mobil ilova), <https://goinvest.uz>

<sup>11</sup> <https://www.uzse.uz/abouts/itogitorg/>

<sup>12</sup> <https://t.me/uzseofficial/5646>

Moliyaviy texnologiyalar bo'yicha tadqiqotlarda ta'kidlanganidek: "Raqamli platformalar kapital bozoriga kirishni soddalashtiradi va investorlarning ishtirokini kengaytiradi, bu esa bozorning likvidligi va samaradorligini oshiradi"<sup>13</sup>. Ushbu fikr O'zbekiston kapital bozoridagi jarayonlarga ham to'liq mos keladi, chunki mobil ilovalar va raqamli xizmatlar investorlar sonining ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Riteyl investorlarning faolligi kapital bozorning texnologik rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, raqamli transformatsiya jarayonlari bozorning kelajakdagi barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston kapital bozorining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan boshqariladigan yagona korporativ axborot portali – [openinfo.uz](http://openinfo.uz) hisoblanadi.

Mazkur portal bugungi kunda barcha emitentlar haqidagi muhim ma'lumotlarni oshkor etuvchi markaziy ma'lumotlar bazasi sifatida faoliyat yuritmoqda. Portal orqali emitentlarning moliyaviy hisobotlari, litsenziya va attestatsiya ma'lumotlari, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidagi o'zgarishlar, dividend to'lovlari, yirik bitimlar va boshqa korporativ voqealar to'liq yoritiladi.

So'nggi yillardagi texnologik o'zgarishlar natijasida ushbu baza jahon tamoyillariga mos ravishda modernizatsiya qilindi<sup>14</sup>. Endilikda portal foydalanuvchilarga qulay interfeys, tezkor qidiruv tizimi va emitentlar faoliyatini tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar taqdim etmoqda. Investorlar uchun bu resurs kapital bozoridagi shaffoflikni ta'minlash, risklarni baholash va investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Portalning joriy etilishi kapital bozorida axborot ochiqligini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa xalqaro moliya bozorlarida qabul qilingan tamoyillarga mos keladi va O'zbekiston kapital bozorining global integratsiyasini tezlashtiradi. Shuningdek, portal orqali emitentlarning faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati kuchayib, korporativ boshqaruvning samaradorligi ortmoqda.

"Axborotning ochiqligi va shaffofligi kapital bozorining samaradorligini oshiradi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi"<sup>15</sup>. Ushbu nazariy yondashuv O'zbekiston kapital bozoridagi amaliy tajribaga ham to'liq mos keladi.

Shunday qilib, [openinfo.uz](http://openinfo.uz) portali kapital bozor infratuzilmasining zamonaviy qismi sifatida nafaqat emitentlar faoliyatini yoritadi, balki investorlar uchun tahliliy imkoniyatlarni kengaytiradi va bozorning shaffofligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Kapital bozor infratuzilmasining rivojlanishida muhim bosqich sifatida yaqinda "Toshkent" Respublika fond birjasi aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi

<sup>13</sup> Tapscott, D. Blockchain Revolution, Penguin, 2016 -

<https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=2566443>

<sup>14</sup> [https://t.me/kapitalbozori\\_official/153](https://t.me/kapitalbozori_official/153)

<sup>15</sup> La Porta et al., Investor Protection and Corporate Governance, Journal of Financial Economics, 2000 -

<https://dash.harvard.edu/server/api/core/bitstreams/7312037d-e8ee-6bd4-e053-0100007fdf3b/content>

bo'lib o'tdi<sup>16</sup>. Ushbu yig'ilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda "Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF 254 – son<sup>17</sup> Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etildi. Mazkur farmon kapital bozorining shaffofligini oshirish, investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirish va xalqaro moliya tizimiga integratsiya jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan bo'lib, yig'ilishda qabul qilingan qarorlar ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Yig'ilishda quyidagi muhim qarorlar qabul qilindi:

- Birjada xorijiy valyutadagi obligatsiyalar hamda xorijiy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va muomalasi uchun ixtisoslashtirilgan savdo maydonchalarini tashkil etish;

- Savdo, kliring, brokerlik va bozor nazorati tizimlarini qamrab olgan amaldagi dasturiy ta'minotni almashtirish. Buning uchun funksional talab va texnik topshiriqlarni ishlab chiqish hamda potensial yetkazib beruvchilarni aniqlash maqsadida axborot so'rovini amalga oshirish;

- Birjaning rasmiy veb-saytini (portalini) yangi versiyada qayta ishlab chiqish va uni zamonaviy texnologik talablarga moslashtirish.

Mazkur qarorlar kapital bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish, savdo jarayonlarining shaffofligini ta'minlash va investorlar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan. Ayniqsa, xorijiy qimmatli qog'ozlar uchun alohida savdo maydonchalarining tashkil etilishi O'zbekiston kapital bozorining xalqaro integratsiyasini jadallashtiradi. Shuningdek, dasturiy ta'minotni yangilash orqali savdo va kliring tizimlarining samaradorligi oshadi, bozor nazorati mexanizmlari takomillashadi.

Shunday qilib, "Toshkent" Respublika fond birjasi aksiyadorlarining navbatdan tashqari yig'ilishida qabul qilingan qarorlar kapital bozor infratuzilmasini takomillashtirish, investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish va O'zbekistonning xalqaro moliya bozorlaridagi o'rnini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

### **Xulosa**

Yuqorida keltirilgan barcha tahlillar va faktlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston kapital bozori so'nggi yillarda tub o'zgarishlarga duch kelib, raqamli transformatsiya jarayonlari orqali yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. RFB "Toshkent" AJ kapitalizatsiyasining keskin o'sishi, riteyl investorlarning faollashuvi, elektron savdo platformalari va mobil ilovalar orqali bozorga kirishning osonlashishi kapital bozorining zamonaviy tamoyillarga moslashganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, openinfo.uz portali orqali emitentlar haqidagi ma'lumotlarning shaffof tarzda taqdim etilishi investorlar ishonchini mustahkamlab, xalqaro standartlarga mos infratuzilma shakllanishiga xizmat qilmoqda.

<sup>16</sup> <https://www.uzse.uz/boards/4179?locale=uz>

<sup>17</sup> <https://regulation.adliya.uz/project/8987/24582>

Prezident farmoniga muvofiq qabul qilingan qarorlar — xorijiy qimmatli qog'ozlar uchun savdo maydonchalarini tashkil etish, dasturiy ta'minotni yangilash va birja portalini modernizatsiya qilish — kapital bozor infratuzilmasini takomillashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu islohotlar investitsiya muhitini yaxshilash, bozorning shaffofligi va samaradorligini oshirish hamda xalqaro moliya tizimiga integratsiyani jadallashtirishga qaratilgan.

Shuningdek, kapital bozorning rivojlanishida riteyl investorlarning faolligi alohida o'rin tutmoqda. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda bitimlar sonining keskin ortishi jismoniy shaxs investorlarning bozorga kirish imkoniyatlari kengayganini tasdiqlaydi. Bu jarayon raqamli texnologiyalar orqali kapital bozorning demokratlashuviga olib kelmoqda.

Kapital bozor infratuzilmasining modernizatsiyasi, axborot ochiqligi va shaffoflikning oshishi, investitsiya muhitining yaxshilanishi hamda xalqaro integratsiya jarayonlari O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Moliyaviy bozorlar nazariyasida ta'kidlanganidek: "Kapital bozorning samaradorligi iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi va investitsiya oqimlarini samarali taqsimlash imkonini beradi"<sup>18</sup>. Ushbu ilmiy yondashuv O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bevosita uyg'unlikda bo'lib, kapital bozorning jozibadorligini oshirishda muhim dalil sifatida xizmat qilmoqda.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O'zbekiston kapital bozorining raqamli transformatsiyasi jarayonlari, riteyl investorlar faolligi va zamonaviy mobil investitsiya platformalarining bozor rivojiga ta'siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi.

Shunday qilib, O'zbekiston kapital bozori bugungi kunda iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biriga aylanib, investorlar uchun jozibador muhit yaratmoqda. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, axborot ochiqligini ta'minlash va infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali kapital bozorning barqarorligi, raqobatbardoshligi va xalqaro integratsiyasi yanada mustahkamlanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ablazov, L.A., Turdaliyev, M. O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – 2024. Available at:

<https://zenodo.org/records/14899927>

---

<sup>18</sup> Levine, R. Financial Development and Economic Growth, World Bank, 1997 - <https://www.findevgateway.org/sites/default/files/publications/files/mfg-en-paper-financial-development-and-economic-growth-views-and-agenda-1996.pdf>

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. National Summary Data Page (NSDP) – Uzbekistan. Available at: <https://nsdp.stat.uz/>
3. “Toshkent” Respublika fond birjasi.  
Available at: [https://uzse.uz/isu\\_infos?page=2](https://uzse.uz/isu_infos?page=2)
4. “Toshkent” Respublika fond birjasi rasmiy veb-sayti.  
Available at: <https://uzse.uz/>
5. Mishkin, F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Pearson, 2019.  
Available at: <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/economics-of-money-banking-and-financial-markets-the/P200000005989/9780136893929>
6. Go Invest – investitsiya platformasi (mobil ilova).  
Available at: <https://goinvest.uz/ru>
7. “Toshkent” Respublika fond birjasi savdo yakunlari.  
Available at: <https://www.uzse.uz/abouts/itogitorg/>
8. “Toshkent” Respublika fond birjasi rasmiy Telegram kanali.  
Available at: <https://t.me/uzseofficial/5646>
9. Tapscott, D. Blockchain Revolution. – Penguin, 2016.  
Available at: <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=2566443>
10. Kapital bozori rasmiy Telegram kanali. [https://t.me/kapitalbozori\\_official/153](https://t.me/kapitalbozori_official/153)
11. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., Vishny, R. Investor Protection and Corporate Governance. Journal of Financial Economics. – 2000.  
Available at: <https://dash.harvard.edu/server/api/core/bitstreams/7312037d-e8ee-6bd4-e053-0100007fdf3b/content>
12. “Toshkent” Respublika fond birjasi kuzatuv kengashi ma'lumotlari.  
Available at: <https://www.uzse.uz/boards/4179?locale=uz>
13. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi.  
Available at: <https://regulation.adliya.uz/project/8987/24582>
14. Levine, R. Financial Development and Economic Growth. World Bank. – 1997.  
Available at: <https://www.findevgateway.org/sites/default/files/publications/files/mfg-en-paper-financial-development-and-economic-growth-views-and-agenda-1996.pdf>